

Oriental Journal of Education



ORIENTAL JOURNAL OF EDUCATION

journal homepage:
<https://www.supportscience.uz/index.php/oje>



DOCUMENTARY FILMMAKERS

Daniyor Shokirov

researcher

Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: documentary film, cinematographer, film plot, filmmaker, director, cameraman, studio.

Received: 09.10.24

Accepted: 11.10.24

Published: 13.10.24

Abstract: This article provides brief information about the specific features of documentary film art and its creators. In general, the names of some people who founded this art form, and at the same time contributed to its development, are mentioned.

HUJJATLI KINO IJODKORLARI

Doniyor Shokirov

tadqiqotchi

O'zbekiston

МАҚОЛА HAQIDA

Kalit so'zlar: hujjatli kino, kinematograf, kinosyujet, kinoijodkor, rejissyor, operator, studiya.

Annotatsiya: Mazkur maqolada hujjatli kino san'atining o'ziga xos xususiyatlari va uning ijodkorlari haqida qisqacha ma'lumot keltirib o'tilgan. Umuman olganda, bu san'at turiga asos solgan, shu bilan birga, uning rivojiga munosib hissa qo'shgan ayrim insonlar nomlari qayd etilgan.

РЕЖИССЕРЫ-ДОКУМЕНТАЛИСТЫ

Даниер Шокиров

исследователь

Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: документальный фильм, кинематограф, сюжет фильма, создатели кино, режиссер, оператор, студия.

Аннотация: В данной статье представлена краткая информация об особенностях документального киноискусства и его создателях. В целом упоминаются имена некоторых людей, которые основали этот вид искусства и в тоже время внесли свой вклад в его развитие.

Ma'lumki, kino san'atining bir necha turlari bo'lib, hujjatli kino o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. U haqqoniylilikka asoslanishi, ma'lum davr insonlarining o'tmishi va buguni, tarixda sodir bo'lgan voqealar haqida faqat haqiqatni aks ettirishi jihatidan ustunligi seziladi. San'atshunoslik fanlari nomzodi, kinoshunos Xanjara Abulqosimova hujjatli kino haqida shunday fikr bildirgan: "Bu kino san'ati turining asosiy xususiyatlari to'g'rilik, haqiqiylikdir. Ular obrazliligi bilan filmni yuqori badiiy darajaga ko'tarishi mumkin" [1; 11]. Shu maqsadda, ayniqsa, rejissyor va operator mavzuviy hamda shakliy izlanish jarayonida nozik jihatlarni topa bilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Hujjatli kino san'atining vujudga kelishida operator Xudoybergan Devonovning hissasi beqiyos. U o'z davrida bu sohaning ilk vakili bo'lish bilan birga, O'zbekiston kinematografi uchun yangi qirralarni kashf etgan ijodkordir. Bu haqda san'atshunoslik fanlari doktori, kinoshunos Nigora Karimova shunday yozadi: "1908-yilda Xiva xonligida birinchi kinofotolaboratoriya ish boshlaydi. "Xalq sayllari" deb nomlangan birinchi kinosujet X.Devonov tomonidan suratga olingan. Bu tarixiy sujetda XX asr boshlarida Xorazm aholisining kiyimlari tarixga muhrlangan" [2; 57]. Qolaversa, Xudoybergan Devonovning boshqa lavhalarida mamlakatimiz aholisining ijtimoiy hayotini kuzatish mumkin.

Kechagi kunning bir necha daqiqalarini o'zida aks ettiruvchi kadrlar vaqtlar o'tib tarixga aylanadi. Shu ma'noda, hujjatli kino o'zida tarix haqiqatlarini haqqoniyligi majassam etadi. San'atshunoslik fanlari doktori, professor Jo'ra Teshaboyev hujjatli kino tarixini o'rganar ekan, quyidagilarni ma'lum qiladi: "1932-yilda Toshkent badiiy kinostudiyasidan respublika xronikal – hujjatli filmlar studiyasi alohida ajralib chiqdi... 1933-yili studiyaga Malik Qayumovning kelishi muhim voqeа bo'ldi" [5; 6].

Bu ijodkor chin ma'noda hujjatli kino san'ati uchun umrini bag'shida etib, xalq hayotini ekanda namoyish etish maqsadida tinimsiz izlandi. Malik Qayumov "Kinematograf – mening hayotim" nomli kitobida o'zi haqida shunday fikr bildiradi: "Men 250 ta film yaratdim, fikrimcha, ular orasidan taxminan faqat 10-20 tasi yomon emas" [3; 62]. Bunday fikrni ijodkor tomonidan dadil tilga olinishining o'zi jasorat. Sababi, san'atkorning o'z ijodidan to'liq qoniqishi uning tanazzuli ekanini ko'rsatadi. Shu bois aytish lozimki, hujjatli kino san'atining bugungi taraqqiyotida Malik Qayumovning o'z o'rni bor. Uning kasbiga bo'lgan sadoqati, mehri, soha rivoji uchun munosib hissasi shu bois doimo qadrlanadi.

Hujjatli kino tarixi haqida qator olimlarimiz izlanish olib borishgan. Ulardan biri Boriy Hasanov bo'lib, u Mustaqillik yillaridagi kinoning bu turida ro'y bergan muhim o'zgarish haqida shunday yozadi: "Istiqlol tufayli ko'p asrlik tariximiz, ilmiy-falsafiy, ma'naviy-madaniy merosimiz, azaliy an'analarimiz va milliy qadriyatlarimiz jiddiy o'rganila boshlandi. Xalqdan, keng jamoatchilikdan sir tutilgan tariximiz, madaniyatimiz va fanimizning noma'lum sahifalari ochildi. Jahon sivilizatsiyasi ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan allomalar, bobokalonlarimizning muborak nomlari tiklandi" [7; 43].

Ijodga keng imkoniyatlар yaratilishi sababli hujjatli kino yangi istiqbolar sari odim qadam tashlay boshladi. Sohada yosh kadrlarning ortishi esa yangicha qarashlar, yangicha mavzu va yangi shakllar vujudga kelishiga zamin yaratdi.

San'atshunoslik fanlari nomzodi, kinoshunos Sabohat Haytmatova hujjatli kino san'ati fidoyilar ijodiy portretlari bo'yicha izlanib, ko'plab ma'lumotlarni jamlagan. Ular orasida Davron Salimov, Shuhrat Mahmudov, Shuhrat Qurbonboyev, Hojimurod Valiyev, Jasur Is'hoqov, Toir Yunus, Umid Ortikov, Mahmudjon To'ychiyev, Ahror Akbarxo'jayev, Eduard Xachaturov, Abdulla To'laganov, Eldor Mamedov, Valeriy Allamyarov, Bahodir G'ofurov, G'ayrat Shodmonov, Eola Pak [6; 68-78] singari hujjatli kino san'atining yangi ufqlarini yarata olgan ijodkorlar biografiyasi va ijodiy izlanishlari natijalari qayd etilgan.

Bugungi kunga kelib esa hujjatli film yaratishga qiziquvchan qator yoshlarning sohada faoliyat olib borayotgani avlodlar almashinuvidagi uzviylik belgisi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, Muzaffar Qoraboyev va Furqat Usmonov singari yosh ijodkorlar hujjatli kino san'atining yangi avlodni sifatida jahon ekranlarida o'ziga xos izlanishlari evaziga qator xalqaro kinofestillar sovrindori bo'lib qaytmoqda. Bu bejizga emas, albatta.

San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Hafiza Niyazova ilmiy tadqiqotida badiiy kino taraqqiyotiga oid takliflari orasida: "Hujjatli kino badiiy kinoga murojaat etib qahramonni gavdalantirishda aktyor ijrosidan foydalanayotgan bir paytda rejissyorlar zamondosh qahramonni gavdalantirishda aynan u ekranga olib chiqmoqchi bo'lgan insonni kinoga jalb etishi ham bu borada yangilik bo'ladi" [4; 149], degan fikr ham o'rinni olib. Bundan ko'rinadiki, hozirgi kunga kelib, hujjatli kinoda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, ayniqsa, yosh kadrlar hujjatli kino san'atini rivojlantirishda turli tajribalarni qo'llamoqdalar. Kino san'ati turlarining o'zaro uyg'unlashuvi kelajak avlod hujjatli kino yaratuvchilari uchun yangi an'analarni boshlab bersa ajab emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abulqosimova X. Kino san'ati asoslari. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2009. – 100 b.
2. Каримова Н. Игровой кинематограф Узбекистана. – Т.: "San'at", 2016. – 216 с.
3. Каюмов М. Жизнь моя – кинематограф. – Т.: изд. лит. и искусства, 1982. – 288 с.
4. Niyazova X. Mustaqillik davri O'zbekiston badiiy kinosida zamondosh obrazi: Dis ... s.f.f.d (PhD) san'atshunos. – Toshkent: 2024. – 150 b.
5. Teshaboyev J. Hujjatli kino tarixi / O'zbekiston hujjatli kinosi (Tuzuvchi va mas'ul muharrir S.Haytmatova). – T.: ART FLEX, 2008. – 116 b.
6. Haytmatova S. Ijodiy portretlar / O'zbekiston hujjatli kinosi (Tuzuvchi va mas'ul muharrir S.Haytmatova). – T.: ART FLEX, 2008. – 116 b.
7. Hasanov A. Mustaqillik davridagi hujjatli kino / O'zbekiston hujjatli kinosi (Tuzuvchi va mas'ul muharrir S.Haytmatova). – T.: ART FLEX, 2008. – 116 b.